

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№12

2025 dekabr




Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX
COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 115 sahifa.
2025-yil, dekabr

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RASMIY RIVOJLANISH YORDAMI (OFFICIAL DEVELOPMENT ASSISTANCE, ODA) ORQALI O'ZBEKISTONDA DAVLAT MOLIYASINI BOSHQARISH (PUBLIC FINANCIAL MANAGEMENT, PFM) TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	24
Pulotov Dilshod Haqberdiyevich, Ulug'ova Maftunabonu To'liqinova	
INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN LEADING WHEAT-PRODUCING COUNTRIES.....	28
Turayeva Gulizahro	
BLOKCHEYN TIZIMLARI UCHUN XESH FUNKSIYALARNI TANLASH MEZONLARI VA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI	32
Abduraximov Baxtiyor, Allanov Orif, Turdibekov Baxtiyor	
RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI ASOSIDA KICHIK KORXONALARDA ISHLAB CHIQARISHNI SAMARALI TASHKIL ETISH MODELLARI: NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA	39
Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li	
ISSIQLIK AKKUMULYATORINING RAZRYADLANISH JARAYONIDA SUYUQLIK QATLAMLARIDA HARORAT TAQSIMLANISHINING BIR O'LCHOVLI MODEL	43
B.A. Hikmatov, M.S. Mirzayev	
ISLOM MOLIYASI TAMOIYILLARI ASOSIDA YASHIL LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	49
Safarova Nasiba Gulmurod qizi	
ПРИМЕНЕНИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СИСТЕМ В ОБУЧЕНИИ СПЕЦИАЛИСТОВ ПО ИНФОРМАЦИОННЫМ ТЕХНОЛОГИЯМ.....	54
Даниярова Улбосын Куатбаевна	
YANGI TURDAGI IKKI QATLAMLI TRIKOTAJ TO'QIMALARI KO'RSATKICHLARINI KOMPLEKS BAHOLASH	58
Ergasheva Rashida Abdug'aniyevna	
HALQALI YIGIRISH MASHINASIDA BURAM UCHBURCHAGINING IP UZILISHIGA BOG'LIQLIGINI TADQIQI.....	62
Soliyev Azizbek Kamoldinovich	
НОВЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ТУРИЗМА 2030: СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ И РЕКОМЕНДАЦИИ ДЛЯ УЗБЕКИСТАНА	69
Голышева Елена Вячеславовна	
STRATEGIK JARAYONNING MODELLARI	76
Musayeva Dilnoza Dilshatovna	
МАТЕМАТИЧЕСКИЕ МОДЕЛИ ОЦЕНКИ СТОИМОСТИ КВАРТИР В МНОГОЭТАЖНЫХ ДОМАХ.....	81
Уринов Адхамжон Акбарович	
MATERIALLARNI MURAKKAB YASSI TRAEKTORIYALAR BO'YICHA DEFORMASIYALANTIRISHDA PLASTIK DEFORMASIYALANISH JARAYONLARI	88
A.Xakimov, X.Xakimov	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN LOYIHALARNI ISLOM MOLIYA INSTRUMENTLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH YO'LLARI.....	95
Xaitov Shaxzod Sharipboyevich	
SANOAT KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH CHORA-TADBIRLARINING KETMA KETLIGI	102
Xusanova Maloxat Mengnorovna	
TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA LOGISTIKA XARAJATLARI TAHLILI	107
Saidova Kamola Xoshimovna	



OZIQ-OVQAT SANOATINI IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNI YECHISHNING METODOLOGIK YONDASHUVLARI	111
Tleuov Niyetulla Raxmanovich	



OZIQ-OVQAT SANOATINI IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNI YECHISHNING METODOLOGIK YONDASHUVLARI

Tleuov Niyetulla Raxmanovich

Qoraqalpoq davlat universiteti dotsenti, i.f.f.d. (PhD),
ORCID: 0000-0003-0107-8734

Annotatsiya. Ushbu maqolada oziq-ovqat sanoatini iqtisodiy rivojlantirishda ekologik muammolar o'rganilib, ularni yechishning metodologik yondashuvlari yoritilib berilgan. Shuningdek, oziq-ovqat sanoatini iqtisodiy rivojlantirishda ekologik muammolarni yechishning metodologik yondashuvlari bo'yicha mualliflik takliflari ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: oziq-ovqat sanoati, ekologik muammolar, iqtisodiy rivojlanish, oziq-ovqat mahsulotlari, metodologik yondashuv.

Abstract. This article examines environmental issues in the context of economic development within the food industry and highlights methodological approaches to addressing them. Additionally, the author presents original proposals for methodological approaches to solving environmental problems in the process of economic development of the food industry.

Keywords: food industry, environmental issues, economic development, food products, methodological approach.

Аннотация. В данной статье исследуются экологические проблемы в контексте экономического развития пищевой промышленности и освещаются методологические подходы к их решению. Также разработаны авторские предложения по методологическим подходам к решению экологических проблем в процессе экономического развития пищевой промышленности.

Ключевые слова: пищевая промышленность, экологические проблемы, экономическое развитие, продукты питания, методологический подход.

KIRISH

Bugungi kunda iqtisodiyotning qaysi tarmog'i ko'rib chiqilmasin, ularning barqaror rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi qator tizimli masalalar mavjud. Xususan, oziq-ovqat sanoati ham bundan mustasno emas. Bu tarmoqda "xom ashyo bazasi – ishlab chiqarish quvvati – iste'mol bozori" o'rtasidagi uzviy bog'liqlik yetarli darajada ta'minlanlash, ishlab chiqarish korxonalarini hududiy jihatdan optimal joylashtirish, resurslardan oqilona foydalanish va boshqaruv tizimini takomillashtirish bilan bog'liq tashkiliy masalalar dolzarbligicha qolmoqda.

Ayni paytda oziq-ovqat sanoati jadal texnik va iqtisodiy transformatsiya jarayonlarini boshdan kechirmoqda. Bunda ayniqsa ekologik talablarning kuchayishi, qayta ishlash jarayonlarida resurs tejamkor texnologiyalardan foydalanish zarurati, xilma-xil biologik xom ashyodan samarali foydalanish kabi omillar tarmoqqa bevosita ta'sir qilmoqda. Ushbu o'zgarishlar oziq-ovqat korxonalarini sog'lom turmush tarzi konsepsiyasiga mos, ekologik toza, iste'molchi talabiga javob beradigan mahsulotlarni ishlab chiqarishga alohida e'tibor qaratishga majbur qilmoqda.

Mazkur jarayonlar shuni ko'rsatadiki, oziq-ovqat sanoatining iqtisodiy rivojlanishi faqat texnik-texnologik yangilanishlar bilangina emas, balki ekologik muammolarni chuqur tahlil qilish va ularni bartaraf etishning metodologik yondashuvlarini ishlab chiqishni ham talab etadi. Zero, ekologik barqarorlikni ta'minlash, chiqindisiz texnologiyalarni joriy etish, suv va energiya resurslaridan tejamkor foydalanish tarmoqning uzoq muddatli strategik rivojlanishining asosiy omillaridan biriga aylanib bormoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Umuman olganda, oziq-ovqat sanoati – tayyor yoki yarim tayyor oziq-ovqat mahsulotlari, shuningdek iste'mol tovarlariga mansub ayrim mahsulotlar (choy, sovun, tamaki mahsulotlari, gigiyena vositalari va boshqalar)ni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan murakkab sanoat majmuasidir. Ushbu tarmoq jamiyatning asosiy ehtiyojlarini qondirishda muhim o'rin tutgani sababli iqtisodiyotning strategik ahamiyatga ega bo'lgan yo'nalishlaridan biri hisoblanadi [1].

Iqtisodiy adabiyotlarda oziq-ovqat sanoati ko'pincha aholining asosiy oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini ta'minlovchi ishlab chiqarish quvvatlari, texnologik jarayonlar va iqtisodiy munosabatlar tizimini o'zida mujassamlashtirgan sanoat tarmog'i sifatida ta'riflanadi.

Y.Gusarova ta'kidlaganidek, oziq-ovqat sanoati – bu yakuniy iste'molga mo'ljallangan oziq-ovqat mahsulotlarining bir butun tizimini tashkil etuvchi, odatda qishloq xo'jaligi xom ashyosini qayta ishlovchi korxonalarni o'zida birlashtiradigan yirik sanoat tarmog'idir. Mazkur tarmoqning iqtisodiy ahamiyati ham aynan inson salomatligi va oziqlanish xavfsizligiga xizmat qiluvchi mahsulotlar ishlab chiqarishi bilan belgilanadi [2].

Shu nuqtai nazardan qaralganda, oziq-ovqat sanoati faqat xom ashyoni qayta ishlash jarayonlari bilan cheklanmaydi. U aholining oziq-ovqat bilan barqaror ta'minlanishiga xizmat qiluvchi ko'plab bosqichlarni – logistika, saqlash, texnologik qayta ishlash, qadoqlash, sertifikatlash, realizatsiya qilish va iste'mol bozorini boshqarish kabi funksional komponentlarni o'zida jamlaydi. Bularning barchasi oziq-ovqat zanjirining ekologik barqarorligi va iqtisodiy samaradorligi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega [3].

Xalqaro amaliyotda ham oziq-ovqat sanoati yagona tarmoq emas, balki bir-birini to'ldiruvchi ko'plab kichik tarmoqlardan iborat majmua sifatida e'tirof etiladi. U dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlashdan tortib, saqlash, qadoqlash, transport-logistika, ulgurji va chakana savdo, umumiy ovqatlanish va eksport tizimlarigacha bo'lgan keng faoliyat yo'nalishlarini qamrab oladi [4].

Oziq-ovqat mahsulotlarining tez buziluvchanligi, mavsumiyliги va hajm jihatidan katta bo'lishi ushbu tarmoqning ekologik va iqtisodiy boshqaruvini yanada murakkablashtiradi [5]. Shu bois, tarmoqni rivojlantirishda ekologik xavfsizlik talablarini hisobga olgan holda, resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, qayta ishlash texnologiyalarini takomillashtirish va "yashil ishlab chiqarish" standartlariga moslashuv muhim metodologik vazifa sifatida qaralmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda statistik kuzatish, taqqoslama tahlil, sintez, mantiqiy fikrlash, solishtirma tahlil usullaridan foydalanilgan. Tadqiqot mavzusi bo'yicha xorijiy va mahalliy olimlarning najariy qarashlari o'rganilgan. Shuningdek, ekologik muammolar sharoitida shimoliy mintaqalar oziq-ovqat sanoatini rivojlantirishning metodologik asoslari yoritilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Oziq-ovqat sanoati o'zining murakkab texnologik jarayoni, resurs talabi va iste'mol bozori bilan bog'liq ko'plab xususiyatlari orqali boshqa sanoat tarmoqlaridan sezilarli darajada farq qiladi. Ushbu xususiyatlar tarmoqning iqtisodiy rivojlanishi, ekologik barqarorligi va ishlab chiqarish texnologiyalarini modernizatsiya qilish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Oziq-ovqat ishlab chiqarish jarayonining o'ziga xosligi, avvalo, quyidagi omillar orqali namoyon bo'ladi:

- ommaviy ishlab chiqarish va mahsulotlarning yuqori xilma-xilligi;
- ayrim tarmoqlarning mavsumiyliги sababli ishlab chiqarish quvvatlaridan notekis foydalanish;
- xom ashyo va tayyor mahsulotlarning cheklangan saqlash muddati;
- mahsulot sifati va assortiment bo'yicha yuqori talablarning mavjudligi;
- sifatning xom ashyo xususiyatlariga bevosita bog'liqligi.

Ushbu xususiyatlar oziq-ovqat sanoatida ekologik muammolarni o'rganish va ularni yechishning metodologik yondashuvlarini ishlab chiqishda asosiy tahlil nuqtasini tashkil etadi. Zero, tarmoqning texnologik murakkabligi, resursga bo'lgan yuqori talabi va ekologik xavf darajasi tarmoqni chuqur "yashil transformatsiyalash"ni talab qiladi.

Oziq-ovqat sanoati o'zining ko'p tarmoqli tuzilishi, texnologik murakkabligi, xom ashyo sifatining o'zgaruvchanligi ba ekologik omillarga sezgirliги tufayli iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridan keskin farq qiladi. Ushbu o'ziga xosliklar nafaqat ishlab chiqarish mexanizmlarini, balki tarmoqning iqtisodiy barqarorligini ham bevosita belgilab beradi. Ayni paytda mazkur tarmoqning iqtisodiy natijalari bir qator tizimli omillar va ishlab chiqarish jarayonidagi ekologik cheklolvar bilan uzviy bog'langan bo'lib, ular korxonalar uchun sezilarli moliyaviy bosimlarni keltirib chiqaradi.



Avvalo, mahsulotlarning yuqori xilma-xilligi va ishlab chiqarishning ommaviy xarakteri korxonalarni turli parametrlar bo'yicha moslashuvchan texnologik bazani shakllantirishga majbur etadi. Bu esa o'z navbatida qo'shimcha texnika va uskunalarga, sifat nazorati bo'linmalariga, laboratoriyalarga va sertifikatlash tizimlariga ehtiyojni oshiradi. Ushbu jarayon ishlab chiqarish tannarxining sezilarli ulushini tashkil etuvchi investitsion xarajatlarni ko'paytiradi. Assortimentning kengligi resurs sarfi, energiya iste'moli va chiqindilar hajmidagi farqlanishni kuchaytiradi, bu esa iqtisodiy jihatdan optimallashtirishni murakkablashtiradi.

Tarmoqning mavsumiyligi ham iqtisodiy oqibatlar ko'lamini keskin oshiruvchi omillardan biridir. Xom ashyo ta'minotining tabiatga bog'liq ravishda o'zgarishi ishlab chiqarish quvvatlarining bir davrda haddan ziyod yuklanishi, boshqa davrda esa bo'sh turishi bilan yakunlanadi. Quvvatlardan notekis foydalanish amortizatsiya xarajatlarning oshishiga, mavsumiy yuklamalarda vaqtinchalik ishchi kuchiga ehtiyojning paydo bo'lishiga, energiya va logistika xarajatlarning ko'tarilishiga sabab bo'ladi. Natijada, korxona yil davomida barqaror moliyaviy oqimni ta'minlashda muayyan qiyinchiliklarga duch keladi.

Xom ashyo va tayyor mahsulotning qisqa saqlash muddati esa korxonalar uchun iqtisodiy yo'qotishlarning eng sezilarli manbalaridan biri hisoblanadi. Sovutish, muzlatish, maxsus saqlash kameralaridan foydalanish yuqori energiya iste'molini talab qiladi, eskirgan sovutkich tizimlarini modernizatsiya qilish esa katta kapital talab qiladi. Saqlash jarayonidagi har qanday xato mahsulotning buzilishiga, yo'qotishlar hajmining ortishiga, qayta ishlash zaruriyati tufayli qo'shimcha xarajatlarga olib keladi. Aholining xavfsiz oziq-ovqatga bo'lgan talabi ortib borayotgani sharoitida bu jarayonlarning iqtisodiy ta'siri yanada sezilarli bo'lib bormoqda.

Mahsulot sifati va assortiment bo'yicha yuqori talablar ham iqtisodiy yukni oshiradi. Xalqaro standartlarga moslashish, ekologik yoki xavfsizlik sertifikatlarini olish, ishlab chiqarish jarayonini doimiy ravishda tekshirish va nazorat qilish, yuqori sifatli xom ashyo xarid qilish - bularning barchasi korxona tannarxining shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Sifat talablarining kuchayishi marketing, qadoqlash, logistika va raqobatbardoshlikni oshirishga yo'naltirilgan qo'shimcha investitsiyalarni ham talab etadi.

Xom ashyo sifatining ekologik va agrotexnik omillarga bevosita bog'liqligi tufayli, xom ashyo narxi va sifati bo'yicha tebranishlar ishlab chiqarish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ekologik toza xom ashyo odatda qimmatroq bo'ladi, organik mahsulotlar segmentiga kirish sertifikatlash, nazorat, marketing va logistika xarajatlarni ko'paytiradi. Xom ashyo sifatidagi o'zgarishlar ishlab chiqarish jarayonida qo'shimcha saralash, tozalash yoki qayta ishlash zaruratini yuzaga keltirib, tannarxning oshishiga sabab bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagilardan kelib chiqib, oziq-ovqat sanoatini iqtisodiy rivojlantirishda ekologik muammolarni yeshishning metodologik yondashuvlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- oziq-ovqat sanoatida iqtisodiy samaradorlikni baholash uchun "ko'p omilli resurs-samaradorlik modeli"ni joriy etish;
- mavsumiylik ta'sirini kamaytirish uchun "mavsumiy tebranishlarni prognozlovchi dinamik ekonometrik model"dan foydalanish;
- mahsulot sifati va tannarxiga ta'sir etuvchi omillarni boshqarish uchun "integrallashgan sifat-iqtisodiy indikatorlar tizimi" metodikasini yaratish;
- xom ashyo barqarorligini ta'minlash uchun "ekologik-iqtisodiy klasterlash metodikasi"ni joriy etish.

Xulosa qilib aytganda, oziq-ovqat sanoatining o'ziga xos texnologik va ekologik xususiyatlari tarmoqning umumiy iqtisodiy natijalariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Energiya va resurslar iste'molining yuqoriligi, texnologik modernizatsiya zaruriyati, xom ashyo sifatining barqaror emasligi, mavsumiy tebranishlar, logistika va sertifikatlash xarajatlarning oshishi - bularning barchasi tarmoqning moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun strategik yondashuvlarni ishlab chiqishni talab qiladi. Shuning uchun ham tarmoqda innovatsion texnologiyalarni joriy etish, "yashil iqtisodiyot" tamoyillariga o'tish, energiya va resurs sarfini optimallashtirish, ekologik standartlarni strategik boshqaruvga integratsiya qilish iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim omillari sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Терехова Т.С. Анализ пищевой промышленности России: стратегические возможности и оценка привлекательности. <https://s.sjes.esrae.ru/pdf/2014/2/18.pdf>
2. Рахимова С. Роль инноваций и инновационного процесса в развитии пищевой промышленности // International Journal of Innovative Technologies in Economy. 6(18), Vol. 2, July 2018. P.15
3. Гусарова Ю.В. Введение в технологию продуктов питания: учеб. пособие. – Тольятти: ТГУ, 2009. –152 с.
4. Wedowati E.R., Singgih M.L., Gunarta I.K. Production system in food industry: a literature study // 6th International Conference on Operations and Supply Chain Management, Bali, 2014. P.274
5. Matthew N. O. Sadiku | Sarhan M. Musa | Tolulope J. Ashaolu "Food Industry: An Introduction" Published in International Journal of Trend in Scientific Research and Development (ijtsrd), ISSN: 2456-6470, Volume-3 | Issue-4, June 2019, pp.128-130

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100